



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



HISTORICOLOGY OF HISTORICAL SOURCES OF THE MONGOLS AND TIMURID PERIOD

Asliddin Mavlonov¹

Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of Samarkand, Republic of Uzbekistan

KEYWORDS

Juvaini, Mongolian, "History of Jahankusho", Chigatay ulus, Abdulvahhab Qazvini

ABSTRACT

This article describes the study of the social and political situation of the Mongol period, the state of Khorezmshahs during their time, especially in Movaronnahr, and the analysis of sources.

2181-2675/© 2024 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.13925922**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Leading teacher of the Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs of Samarkand, Republic of Uzbekistan, Samarkand, Uzbekistan

MO`G`ULLAR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXIY MANBALARI TARIXSHUNOSLIGI

KALIT SO`ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Juvayniy, mongol, ``Tarixi Jahonkusho``, Chigatay ulusi, Abdulvahhob Qazviniy.

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada mo`g`ullar davri, ularning davrida xorazmshohlar davlati, xususan Movaronnahrda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning o`rganilishi hamda manbalar tahlili bayon etiladi.

Mo`g`ullar imperiyasi tarixdan ma`lumki bir necha markazlashgan davlatlarni barpo etgan. Aynan shu davlatlardan biri 1224-yilda tarkibiga Movarounnahr, Sharqiy Turkiston hududlarini olgan Chig`atoy ulusidir. Bu davr tarixini yoritib beruvchi manbalar sirasiga Alouddin Atomalik Juvayniyning ``Tarixi Jahonkusho`` asarini keltirish joizdir. Ushbu asarga o`z davrida Mirzo Muhammad ibn Abdulvahhob Qazviniy maxsus muqaddima bitgan. Muarrir quyidagicha fikr bildiradi ``Islomiyatdan bugungi kunga qadar maydonga kelgan muhim voqea, balki butun davrlarning muhim hodisasi mo`g`ul istilosini yuzaga chiqargan qo`rqinchli voqealardir. Mo`g`ullar hujumlari hijriy XIII asrning boshlarida Sharq zaminida boshlangan, 30-40 yil ichida Chin dengizi sohillaridan Suriya va Misr chegaralariga, Dashti Qipchoq, Rusiya, Polsha va Mojaristondan Basra ko`rfaziga qadar va Ummon dengiziga qadar tarix guvoh bo`lgan juda keng hududni qamrab olgan. 656 (1258) yilga kelib ildizi qadimgi zamonlarga borib taqalgan Abbosiylar xalifaligini ham qulatgan.`` Aynan manashu ziddiyatlar va fitna alomatlari maydonga chiqqan halokat vaqtida bu vaxshiylarning o`t qo`yishlari va qatli omlariga eng ko`p nishon bo`lgan o`lka bu baxtsiz Eron (va Markaziy Osiyo)dir. Mo`g`ullarning dunyodagi mamlakatlarning ulkan zararlariga sababchisi bo`lgan shiddatli to`foni Orta sharqning hamma tomonlarini vayron qildi, bu baloning dunyoni kuydurgan olovi Eronni batamom alangaga tutdi, aynan shun kabi hodisalar paytida millionlab aybsiz kishilar o`ldirildi, shaharlar, qasabalar va qishloqlar butunlay vayron qilindi. [1]

Eronda mo`g`ul bosqinining keltirgan yomon falokati ilm va adabiyotni butunlay yo`q qilolmasa-da, aynan shu sohaning eng past saviyaga tushib qolganidadir. Islomiy bo`lgan ilmlarni va adabiyotni biroz bilgan kishi mo`g`ul istilosidan avval va so`ngra yozilgan kitoblarni taqqoslay olsa, oradagi juda katta farqni tushuna oladi. Shuning bilan bir qatorda adabiyotning xususiy bir bo`limi hisoblangan tarix ilmining mo`g`ullar davrida ham ilgarilashi va rivojlanishi xayron qolarli holdir. Bugunga qadar yozilgan tarix kitoblarining eng yaxshilaridan biri bo`lgan, 1259-yilda yozilgan Alouddin Atomalik Juvayniyning ``Tarixi Jaxongusho``si, G`azonxon va Uljaytuning vaziri Rashiduddin Fazlulloh tomonidan 1310-1311-yildan yozila boshlangan ``Jome`u-t-tavorix`` nomli qimmatli va keng qamrovli tarixiy kitobi, 1327-yilda yozilgan, Abdulloh bin Fazlulloh ash-

Sheroziyning “Tarixi Vassof” nomi bilan ham ataladigan “Tajziyatu-l-amsor va tazjiyatu-l-osor” nomli tarixga bag`ishlangan kitobi, “Jome’u-t-tavorix” asariga nazira va ilova tarzida 1329-yilda yozilgan Abdulloh Abu Bakr bin Axmad bin Nasr al-Mustavfiy Qazviniyning “Tarixi guzida” kitobi, 1334-yilda “Shohnoma” tarzida bitilgan yigirma besh ming baytdan iborat arab tarixi, yigirma ming bayti Eron tarixi, o`ttiz ming bayti mo`g`ul tarixini qamrab olgan yetmish besh ming baytlik “Zafarnoma” nomli ulug` tarix kitobi, 1317-yilda Abu Sulaymon Dovud bin Abul Fazl Muxammad al-Banokatiy qalamiga mansub “Tarixi Banokatiy” nomi bilan ham ataladigan “Ravzatuli-l-albob fi ta-vorixu-l-akobir val ansob”, 1275-yilda yozilgan mashhur “Tafsiri Bayzoviy” asari muallifi Nosiriddin Abu Sa`id Abdullox bin Umar bin Ali al-Bayzoviyning Eron sultonlari haqida qisqa shaklda yozgan “Nizomu’ at-tavorix”, Abu Sa`idning saltanati davrida 1332-yilda Muxammad bin Ali Muxammad bin Muxammad bin Xusayn bin Abu Bakr ash-Shabonariyning “Majma’u-l-ansob” kabi qimmatli manbalarning hammasi mo`g`ullar hukmronligi davrida yozilgan hisoblanadi.

Mo`g`ullar davri haqidagi qimmatli ma`lumotlarni Rashiduddin Fazlullohning “Jomi ut-tavorix” asaridan ham olish mumkindir. Bu asarning yozilish tarixi 1310-1311-yillardir. “Jomi ut-tavorix”dagi mo`g`ullar, Xorazmshohlar o`lkasini zabt etishi va O`qtoy xonning faoliyatlariga doir ma`lumotlar Juvayniyning asaridan olingandir. “Jomi ut-tavorix”ning ba`zi forscha va ba`zi bo`limlarida mo`g`ulcha o`laroq qalamga olingan, keyinchalik esa qisman arab tiliga tarjima qilingan. [2]

Asar ikki variantda tayyorlangan. 1306-1307-yilda tugallangan birinchi variant uch jild, 1310-yilda tamomlangan ikkinchi versiyasi esa to`rt jilddir. Buning sababi muallifning o`z asarini G`ozonxonga bag`ishlash niyati bilan yoza boshlaganligini va asar tugamasidan oldin uning vafot etganligi (1304), shundan keyin boshqa hukmdorga-O`ljoytuga taqdim qilishni o`ylagan. Lekin buni ma`qul ko`rmasdan O`ljoytuning o`zi uchun alohida bir asar yozishni xohlagan. Shuning uchun birinchi jild G`ozonxonga bag`ishlangan, asarning ikkinchi jildi O`ljaytuning amri bilan yozilgandir. [3]

Istanbul kutunxonalarida yozma nusxalari ham mavjud bo`lgan asarning boshqa, har xil bo`limlari turlicha tarixlarda nashr qilingandir. [4] Ma`lumki Anushteginiylar hukmronligi davrida Arab xalifaligi hali mavjud bo`lib avvalgi ta`sirini deyarli yo`qotib bo`lgan edi. Bag`dod xalifalari ilgargidek nufuz va hujumkor qudratga ega emas edi. Chingizxon bosqini arafasida musulmon hukmdorlar mo`g`ullarga qarshi birlashib kurashsa bo`lar edi. Biroq turli ixtiloflar oqibatida bunday ittifoqning tuzilishini o`zi imkonsiz edi. Sababi Bag`dod xalifasi Nosirga xorazmshohlar bir necha bor ittifoq taklifini bildirgan. Biroq, rad javobi beriladi. Buning dalilni Suxrvardiyning quyidagi ma`lumotlarida ko`rib o`tish mumkin bo`ladi. “Sulton Alouddin Muhammad hech chiqisha olmagan Abbosiy xalifasi Nosir Lidunillohning elchisi Shihobiddin Umar as-Suxrvardiyini qabul qilganda unga ortiqcha e`tibor ko`rsatmadi. Xalifaning Xorazmshohni harbiy harakatlari sababli tanbeh berish uchun yuborgan elchisi avval kuttirib qo`yildi, huzurida esa Alouddin Muhammad Nosir Lidunillohga yetkaziladigan gaplarini qo`pol tarzda aytdi.

Sulton xalifadan shu darajada darg`azab ediki, hatto elchining o`tirishiga ham ruxsat bermadi.` [5]

Jaloliddin Manguberdi hayoti va uning yorqin faoliyati to`g`risida Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy boy ma`lumotlar beradi. ``Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mangburni`` asari Jaloliddin vafotidan keyin yozilgan bo`lsa-da, Nasaviy sultonning shaxsiy kotibi sifatida faoliyat yuritgan. Asar 1241-yilda yozilishi boshlanadi va 1249-yilda yozib tamomlanadi. Asarda Nasaviy 1219-1231-yillar oralig`idagi Movarounnahr, Xuroson, Iroq, Eron, Ozarbayjon, Gruziya, Hindiston kabi mamlakatlarning Jaloliddin qo`l ostida davlatga birlashtirilishi jarayonlari haqida ma`lumotlar keltiriladi. Asar hajman ancha yirik bo`lib 108 bobdan iborat. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning Jaloliddin bilan tanishib qolishi, unga kotib bo`lib xizmatga o`tishi ``Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mangburni`` asarining ``Iroqqa topshiriqlarni bajarish uchun borishim bayoni`` deb nomlangan 91-bobida keltirib o`tiladi. Unga ko`ra Nasaviyni topshiriq bilan Iroqqa yuborishadi. Alamut hukmdori Alovuddin Falakiddin nomli elchisi Hirot bosib olinganidan keyin Sultonning saroyiga keladi. Elchi o`zi bilan birga belgilangan o`ttiz ming dinor o`lpandan yigirma mingini ham keltirgan bo`ladi. Bundan tashqari oldingi ikki yil uchun ham qarzdorlik bo`ladi. Qolgan pullarni bermaslik uchun turli sabablarni ko`rsatgan. Nasaviy shu qolgan pullarni talab qilish va ularni ogohlantirish uchun yuborilgan bo`ladi. Asarning 107-bobida [7] sultonning boshidan kechirganlari va so`ngi kunlari haqida ma`lumotlar beriladi. Jaloliddinning tatarlar tomonidan asir olinishi va ularning chodirida o`ldirilishi bayoni ham aynan shu bobda beriladi. Asar 1891-1895-yillarda Parij va Qohirda nashr etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzo Muhammad Abdulvahob Qazviniyning ``Tarixi Jahonkusho`` asariga maxsus muqaddimasidan. 11-bet.
2. Romozon Shashan, ``Jomi'ut-tavorix`` DIA, VII jild, 132-bet.
3. Shoshon, nomi yuqorida aytilgan modda, 132 sah.
4. To`pqqoli Saroyi Muzeyi kutubxonasi, Ravon qo`shku, raqam 3034. «Jomi'ut-tavorix»ning nashr qilingan bo`limlari Ramozon Shashan, «Jomi'ut-tavorix» Diyonat ishlari Islom Ensiklopediyasi (DIA), VII jild, 133 sah.da qaysi bo`limlarning qaerda va kim tomonidan nashr qilinganligi ko`rsatilgan. Biz bu yerda ko`rsatilgan nashrlarga qomusiy jildning nashridan keyingi bir tarixda nashr qilingan «Jomi'ut-tavorix « tarjimasini qo`shishni istaymiz. Rashiduddin Fazlulloh, Cami'u't-tevarix: Compendium of) Chronicles A History of the Mongols, tarjimon: W.M.Thackson, Ed: Sinasi Tekin – Gonul Alpay Tekin, Harvard C: I, 1998; C: II-III, 1999.
5. Suxravardiyning Abbosiy saroyidagi holati va ta'siri uchun qarang: Angelika Hartman,. 233-254 –bet
6. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy., Siyrat as-Sulton Jalol ad-Din Mangburni., Kamol Matyoqubov tarjimasini., T-1999., 365-bet.
7. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy., Siyrat as-Sulton Jalol ad-Din

Mangburni.,Kamol Matyoqubov tarjimasi., T-1999., 417-bet.